

ОҚОЛТИН ТУМАНИ: ТАБИАТИ, АХОЛИСИ ВА ХО‘ЖАЛИГИ

Sulaymonov Farxod Erkinjon o‘g‘li

O‘zMU, geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti magistranti

Annotasiya: maqolada Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani tabiati, aholisi va xo‘jaligiga umumiy tavsif berilgan. Asosiy e‘tibor tuman tabiiy sharoitu va resurslari, aholi soni va joylashuvi, aholi zichligi, aholi takror barpo bo‘lishi, MFYlar, shuningdek, iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibigaru o‘zgarishlarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tuman, iqlim, tabiiy sharoit, resurslar, aholi, sanoat, qishloq xo‘jaligi.

АКАЛЬТИНСКИЙ РАЙОН: ПРИРОДА, НАСЕЛЕНИЕ И ХОЗЯЙСТВО

Аннотация: В статье дана общая характеристика природы, населения и хозяйства Акальтинского района Сырдарьинской области. Основное внимание уделено природным условиям и ресурсам района, численности и размещению населения, плотности населения, воспроизводству населения, МФЙ (махаллям), а также изменениям в структуре отраслей экономики.

Ключевые слова: район, климат, природные условия, ресурсы, население, промышленность, сельское хозяйство.

AKALTINSKY DISTRICT: NATURE, POPULATION, AND ECONOMY

Abstract: The article provides a general overview of the nature, population, and economy of the Akaltinsky District in the Syrdarya Region. The main focus is on the natural conditions and resources of the district, population size and distribution, population density, demographic reproduction, MFY (mahallas), as well as changes in the structure of economic sectors.

Keywords: district, climate, natural conditions, resources, population, industry, agriculture.

Ma'lumki, geografiya fanining o'ziga xos, betakror, jozibali xususiyati, uning turli miqyosda tadqiqot olib borishga egaligidir. Odatda biz, o'rganish jarayonida tadqiqot obyekti kichrayib borgan sari uning sotsial, ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va ekologik kabi jihatlarining miqyosi oshib boradi. Bunday tadqiqotlarda bevosita joylarga va undan yanada kichik hududlarga tomon o'rganish tasnifi o'zgaradi. Bunda murakkablikdan oddiylikka yoki aholiga va uning yashash sharoiti, kundalik turmush darajasini o'rganishga yaqinlashib boriladi [2]. Demak, tadqiqot obyekti kattalashib borishida uning iqtisodiy-siyosiy ahamiyati yuqori bo'lsa, hududning kichrayib borishida uning ijtimoiy-iqtisodiy, xususan sotsial va ekologik ahamiyati ortib boradi. Lekin bu ba'zan muhim masala va muammolarga yechimlar ham aniqlash imkoni berish mumkin.

Oqoltin tumani -Sirdaryo viloyati tarkibidagi tuman bo'lib 1971-yil 29-avgustda tashkil etilgan. Shimoldan Qozog'iston Respublikasi, shimoli-g'arbdan Jizzax viloyatining Mirzacho'l, janubi-g'arbdan Do'stlik tumanlari, janubdan viloyatning Sardoba tumani, shimoli-sharq, janubi-sharqdan Mirzaobod va Mehnatobod tumanlari bilan chegaradosh. Tahlil etilayotgan hudud maydoni 0,56 ming km²ga teng bo'lgan holda, aholisi 2025-yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 56 422 kishi yoki viloyat aholisining 6,1 foizi istiqomat qiladi. Oqoltin tumanida 13 ta mahalla fuqarolar yig'ini (Ahillik, Bo'ston, Ko'rkam diyor, Andijon, Yangi hayot, Obod, Toshkent, Yangi davr, A.Sirdaryo, Sahovat, Shodlik,) bor (2023). Tuman markazi - Sardoba shaharchasi [4].

Oqoltin tumani hududi relyefi asosan tekislikdan iborat. Shimoliy qismiga tomon pasayib boradi, janubiy qismi Sardoba tumanidan boshlangan tepa-pastliklarni o'z ichiga oladi.

O'rganilayotgan tuman hududida o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 200-300 mm ni tashkil etadi. Yoz oylarida o'rtacha havo harorati +26 +30 gradusgacha va qishda -6 gradusgacha sovib ketishi kuzatilgan. Ob-havosi keskin o'zgaruvchan va quruq. Yillik o'rtacha temperatura +14C° gradus. Yanvarning o'rtacha temperaturasi shimolida -6°, janubida -2°. Qishda havo tez soviydi va temperatura -30° gacha pasayadi. Ba'zan, qish o'rtalarida havo birdaniga isib, keyin sovib ketadi. Kech ko'klamda va erta kuzda ham sovuq tushib o'simlikning o'sish davrini qisqartiradi. Yozi quruq va issiq. Iyulning o'rtacha temperaturasi +27 +29°C gradus qayd etiladi. Yozda ba'zan temperatura +32 +45°C gradusgacha ko'tariladi. Ko'pincha issiq shamol (garmsel) tuproqni quritadi va o'simliklar rivojlanishiga

salbiy ta'sir qiladi. Vegetatsiya davri 218 kun. Yillik yogin 180-220 mm, asosan, qishda yog'adi. Yozda kuchli bug'lanish sababli yer osti suvlari yuza maydonlarning tuprog'ini sho'r bosadi. Bahorda esadigan bu xildagi shamol unib chiqayotgan g'o'zalarni ba'zan nobud qiladi. Bunday holatni oldini olish maqsadida keyingi yillarda tumanda ixota daraxtzorlari barpo qilindi. Ahyon-ahyonda garmsel esadi. Garmselga qarshi daraxtzorlar barpo qilinmoqda. Bahor oylari ancha seryog'in ko'rsatkichga ega. Mart, aprel oylarida yillik yog'inning 70% qismi yog'adi. Tuproqlari, asosan, och tusli bo'z tuproq bo'lib, kam va o'rtacha sho'rlangan; mexanik tartibiga ko'ra, qumoq va soz tuproqlardir. Tekisliklarda sho'rxok va sho'rxoksimon tuproqlar uchraydi. Yer osti suvining chuqurligi 5-6 metr atrofida. O'simliklardan lolaqizg'aldoq, boychechak, chuchmoma, qoqi, yalpiz, ismaloq, yantoq, sho'ra, shuvoq, qo'ng'irbosh, qo'ziquloq, tuyatovon, quyonsuyak, juzg'un, qovul, oqquray, qiltiq, kavrak, rang, iloq, betaga, qiyoq, qamish, yulg'un, oqbosh, qushqo'nmas, na'matak, mingboshi, chitir, g'umay, pechak, saksovul, har xil butalar, jiyda, do'lana, tol, terak, qayrag'och, oq akatsiya, zarang, shumtol va boshqalar o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan: jayra, tulki, bo'ri, chiyabo'ri, qobon, jayran, nutriya, ondatra, ko'rsichqon, suvkalamush, tipratikan, yumronqoziq, kaltakesak, ilon, toshbaqa, falanga, chayon, qoraqurt, qushlardan xo'jasavdogar, moyqut, bulduruq va boshqalar bor.

Sardoba suv ombori joylashgan hududga yaqin janubiy-sharqiy qismlarida kuz-qishda havo harorati pasayadi va bahor-yozda harorat ko'tarila boshlaydi, shu sababli suv omborda suv haroratining minimal pasayishi dekabr-yanvar oylarida +1,4°C dan +3°C darajagacha bo'lsa, suvning harorati bahorning aprel oyida +7°C dan +10°C darajagacha ko'tariladi. Suv haroratining maksimal ko'tarilishi yoz faslida +22°C darajani tashkil etadi. Suv omboridan rekreatsiya maqsadlarda foydalanishni suv boshqarmasi bilan shartnoma asosida tashkil etish mumkin. Sardoba suv ombori quyilma tipda, mavsumiy rostlovchi bo'lib, o'z vazifasiga ko'ra ma'lum hududda Sirdaryo daryosi suvini boshqarish uchun xizmat qiladi [2].

Aholisi. Respublikamizda aksariyat qishloq tumanlarining tabiiy-xo'jalik sharoiti turli-tumanligi bois, ularning aholisi soni, zichligi, aholining takror barpo bo'lish hususiyatlari va aholi manzilgohlarining katta-kichikligi, joylashuvi hamda tarkibi bir-biridan ancha farq qiladi. Oqoltin tumanidagi aholi soni yil sayin o'sib bormoqda. Tahlil etilayotgan Oqoltin tumani aholisi soni 56,6 ming kishini tashkil

etgani holda itimoiy sohalarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega (1-jadval).

Ma'lumki, Sirdaryo viloyati hududining aksariyat qismini tekislik yerlari egallaganligi tufayli aholi zichligi 178 kishi / km.kv. va bu borada u O'zbekiston hududlari orasida o'rtacha o'rinlarda turadi. Odatda, vohalarda, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi hududlarda aholi zichligi yuqori bo'ladi. Oqoltin tumani ham ana shunday hududlar sirasiga (121 kishi / km.kv.) to'g'ri keladi (respublikada o'rtacha 81 kishi).

1-jadval

Sirdaryo viloyati aholisining hududiy tarkibi (2025-yil 1- yanvar holati, ming kishi)

Tumanlar	2024-yil	2025-yil	O'sish surati %da
Oqoltin tumani	55,8	56,6	101,4
Boyovut tumani	138,9	141,5	101,9
Sayxunobod tumani	82,8	83,9	101,3
Guliston tumani	79,6	81,1	101,9
Sardoba tumani	70,3	71,4	101,6
Mirzaobod tumani	80,4	82,3	102,4
Sirdaryo tumani	137,2	139,3	101,5
Xovos tumani	102,3	104,1	101,8

Маълум: www.sirstat.uz ma'lumotlari

Tumanning yana bir o'ziga xos jihati esa urbanizatsiya ko'rsatkichlari viloyat ko'rsatkichidan yuqori ya'ni 65% dan iborat ekanida. Ya'ni tumanda mavjud 3 ta shaharcha aholisi mavjud aholini deyarli 2/3 qismini yashash manzili sanaladi.

2024-yil 1-yanvar holatiga Oqoltin tuman aholisi jinsiy tarkibida ayollar ulushi 49.7 foiz, erkaklar ulushi 50,3 foizni tashkil qildi. Demak, tumanda ayollar soni erkaklar soniga nisbatan biroz kamroq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Oqoltin tumanida 2024-yilda tug'ilish koeffitsienti 21,9, o'lim koeffitsienti 4,8 % teng bo'lgan. Umuman olganda, Oqoltin tumanida aholining tabiiy o'sishi 2024-yilda 17,1 % teng bo'lgan.

Xo‘jaligi. Tuman iqtisodiyoti agrar-industrial yo‘nalishga ega. Tumanda 2024-yilda 590,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo‘lib, viloyat yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi atigi 3,9% demakdir (2-jadval) [2].

2-jadval

Oqoltin tumanning Sirdaryo viloyati bilan solishtirma asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2024- yil)

	Hajmi mlrd. so‘m	Oqoltin tumanning Sirdaryo viloyatida tutgan ulushi, % da
Sanoat mahsuloti	590,1	3,9
Iste‘mol tovarlari	598,0	3,8
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1234	9,7
Asosiy kapitalga investitsiyalar	1414,1	16,4
Qurilish ishlari	232,2	4,2
Xizmatlar, jami	250,7	2,3
Tashqi savdo balansi	711,2	5,8
Eksport	239,1	4,5
Import	472,1	6,8

Маълумотлари: www.sirstat.uz

Umuman olganda, Oqoltin tumani sanoat tarmoqlar tarkibida oziq-ovqat va yengil sanoat to‘liq ustunlikka ega. Birgina oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy tuman sanoatining deyarli yarmini tashkil qiladi. Tumanda 2023-yilda jami sanoat korxonalarini soni 210 tani tashkil etgan bo‘lib, barchasi kichik korxonalar va mikrofirmalardan iborat. Shu jumladan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar 3 ta. Oqoltin tumanining sanoati turli sohalarda rivojlanmoqda. 2024-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, tuman hududida ro‘yxatga olingan 1436 ta yuridik shaxsdan 132 tasi sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu korxonalar orasida qishloq xo‘jaligi, savdo va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari ham muhim o‘rin tutadi. Tumaning yirik sanoat korxonalaridan biri “Oqoltin mega Textile” hisoblanadi. Ushbu korxonalar trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqaradi va ularning barcha mahsulotlari mahalliy paxta tolasidan tayyorlanadi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 25

milliard so‘mni tashkil qiladi va mahsulotlar Rossiya, Qozog‘iston va boshqa MDH mamlakatlariga eksport qilinadi. Bundan tashqari, Oqoltin tumanida qishloq xo‘jaligi sohasida ham ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. "Sardoba universal cluster" MChJga qarashli "Agromarkaz" kabilar yangi ish joylarini yaratish va qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilgan [2].

2024-yilda tumanda 1234 mlrd. so‘mlik qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lib, jami viloyatning mazkur turdagi mahsulotining 9,7 % ta‘minlagan. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosiy qismi dehqonchilik mahsulotlariga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Tahlilardan ko‘rish mumkinki, Oqoltin tumani jami xizmatlar tarkibida asosiy o‘rinni savdo hamda transport xizmati egallagan. Bu ikkala xizmat turi barcha xizmatning asosiy qismini tashkil etadi.

Aholining yashash sharoiti ko‘p jihatdan ijtimoiy infratuzilma shahobchalarining qay darajada ta‘minlanganligi bilan belgilanadi. Bu jihatdan, ayniqsa, aholining toza ichimlik suvi, gaz va elektr energiya bilan ta‘minlanishi katta mazmun kasb etadi. 2024-yil holatiga Oqoltin tumanidagi kvartiralarining (uy-larning) bor-yo‘g‘i 79,7 % markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta‘minlangan. Bu borada viloyatning boshqa ma‘muriy birliklari bilan taqqoslaganda eng so‘nggi o‘rinlarda turadi.

Rasmiy statistik ma‘lumotlarda 2024- yilning 1- dekabr holatiga ko‘ra, Sirdaryo viloyatida jami 8 474 ta mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJ) faoliyat yuritmoqda. Shundan Oqoltin tumanida– 661 tani tashkil etadi. Sanoat korxonalarini soni 125 tani tashkil etadi, bu umumiy faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining 9,6 foizini tashkil qiladi. 2023-yil davomida 210 ta yangi korxonalar ro‘yxatga olingan, ularning 56,2 foizi qishloq va o‘rmon xo‘jaligiga, 29,5 foizi esa savdo sohasiga to‘g‘ri keladi. Sanoat tarmoqlari agrosanoat korxonalarini eng katta ulushni egallaydi [3].

Yuqoridagi ma‘lumotlar tahlilidan ko‘rish mumkinki, viloyatimizning boshqa tumanlariga nisbatan Oqoltin tumanining mineral xomashyo salohiyati sust, bu yerda sanoat ahamiyatiga ega yirik konlar mavjud emas, bu esa uning sanoatini divesifikatsiyalanmaganiga ta‘sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga tumanning agroiqtim

resurslari salohiyati katta, jumladan quyoshli kunlar miqdorining ko‘pligi, qishloq xo‘jaligini rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Tuman xo‘jaligida qishloq xo‘jaligini avvaldan ustun rivojlanganligi, katta xajmda qishloq xo‘jaligi xomashyosi yetishtirilishi sababli, sanoatida qayta ishlovchi oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalarini ko‘proq rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom Toshkent. O‘zbekiston, 2017.
2. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.: “Mumtoz so‘z”. 2010
3. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. (Tanlangan asarlar). Monografiya.- Toshkent, 2013. 42-45 b.
4. Sirdaryo viloyati statistik axborotnomasi. Guliston, 2023-yil.
5. www.oqoltintuman.uz/uz
6. www.sirstat.uz

Research Science and Innovation House